

BOSHLANG‘ICH TA’LIMNING TA’LIM TIZIMIDAGI AHAMIYATI

*"University of economics and pedagogy"
Ijtimoiy gumanitar fanlar kafedrasi dotsenti
Abdurazzaqova Feruzaxon
Boshlang‘ich ta`lim yo`nalishi talabalari
Xoljo`rayeva Navro`zoy Muhammadjon qizi
Tohirova Husnida Bahromjon qizi*

Annotatsiya: Mazkur maqola, boshlang‘ich ta’limning ta’lim tizimidagi ahamiyatini o‘rganishga bag‘ishlangan. Maqlada boshlang‘ich ta’limning jamiyatning intellektual va ma’naviy rivojlanishidagi o‘rni, shuningdek, o‘quvchilarning shaxsiy va ijtimoiy ko‘nikmalarini shakllantirishdagi roli tahlil qilinadi. Boshlang‘ich ta’lim tizimining muvaffaqiyati, kelajakda ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlikni ta’minalashda, shuningdek, o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytirishda muhim omil hisoblanadi. Ta’limning asosiy yo‘nalishlari va samarali pedagogik usullar haqida ham so‘z boradi, shuningdek, bu bosqichning o‘ziga xos xususiyatlari va uning ijtimoiy-psixologik ta’sirini ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘ozlar: boshlang‘ich ta’lim, ta’lim tizimi, jamiyat rivoji, ijtimoiy ko‘nikmalar, pedagogika, ta’limning ahmiyati, o‘quvchilarning rivojlanishi.

Kirish

Maktabga kelish arafasida bolaning so‘z boyligi o‘z fikrini bayon qila oladigan darajada ortadi. Boshlang‘ich sinf yoshidagi bolalar nutqi, asossa, ot, fe’l, sifat, son va bog‘lovchilardan iborat bo‘ladi. Bola butun bolalik davrida nutqni jadal ravishda egallab borib, nutqni o‘zlashtirishi ma’lum bir faoliyatga aylana boradi. Mazkur yoshdagagi bolalarning yana bir o‘ziga xos xususiyati bola nutqida o‘z fikrini bayon etibgina qolmay, balki o‘z suhbatdoshining diqqatini o‘ziga jalb qilish uchun ham gapiradilar. Bu jarayonda ularda kelajakda o‘z kasbida erkin ishlash ko‘nikmalarini, fikrlarini bayon eta olish ko‘nikmalarini ma’lum darajada shakllanadi. Bu davrda yozma nutq ham shakllana boshlaydi. Yozma nutq jumlalarni to‘g‘ri tuzish va so‘zlarni to‘g‘ri yozishga ma’lum talablar qo‘yilganligi bilan xarakterlanadi. Bola so‘zlarni qanday eshitgan bo‘lsa, shundayligicha yozmasligini bilishi, ularni to‘g‘ri talaffuz etishga va yozishga o‘rganishi zarur. Yozma nutqni egallah asosida bolalarda turli matnlar haqidagi ma’lumotlar yuzaga keladi. Bu davrda yozma nutq endigina shakllana boshlagani bois, bolada o‘zi yozgan fikrlarni, so‘z va harflarni nazorat etish malakasi hali rivojlanmagan bo‘ladi. Lekin unga ijod qilish imkoniyati beriladi. Ushbu mustaqil ijodiy ish mifik yoshidagi o‘quvchilarda berilgan mavzuni anglash, uning mazmunini aniqlash, fikrini bayon etish uchun ma’lumot to‘plash, muhim jihatlarini ajratib olish,

uni ma'lum ketma-ketlikda bayon etish, reja tuzish malakasini yuzaga keltiradi. Jumlalarni to‘g‘ri tuzish, aynan shu mazmunga mos so‘zlarni topish va ularni to‘g‘ri yozish, tinish belgilarini to‘g‘ri qo‘yish, o‘z holatlarini topa olish va to‘g‘rilash aqliy rivojlanishning ko‘rsatkichlaridan hisoblanadi. Boshlang‘ich ta’limdagi o‘qish faoliyati kichik maktab yoshudagi o‘quvchining aqlidroki, sezgirligi, kuzatuvchanligi, eslab qolish va esga tushirish imkoniyatlarining rivojlanishi uchun muhim shart-sharoitlar yaratadi, hisoblash malakalarini shakllantiradi. Ta’lim jarayonida ularning bilimlar ko‘lami kengayadi, qiziqishlari ortadi, ijodiy izlanish qobiliyatni rivojlanadi, ularda tafakkurning faolligi, mustaqilligi ortadi, aqliy imkoniyatini ishga solish vujudga keladi. Mazkur yoshdagagi bolalar o‘z idroklarining aniqligi, ravonligi, o‘tkriligi bilan boshqa yosh davlaridagi insonlardan farq qiladi. Ular har bir narsaga berilib, o‘ta sinovchanlik bilan qarashlari sababli idrokning muhim xususiyatlarini o‘zlashtirish qobiliyatiga ega bo‘ladilar. 7 – 10 yoshdagagi o‘quvchining idroki, uning xatti-harakati, o‘yini va mehnat faoliyati bilan bevosita bog‘liqdir. O‘quvchi o‘zining ehtiyoji, mayli, qiziqish va intilishi, turmush sharoitiga mos ravishda, shuningdek, o‘qituvchi tavsiya etgan narsalarni idrok qila oladi. Shu sababli mazkur davrda, ya’ni boshlang‘ich sinfda o‘qituvchi bolalarga to‘g‘i yo‘nalish berishi. Ularning qobiliyatlaridan kelib chiqqan holda kelajakdagi kasbiga to‘g‘ri yo‘naltirishi lozim. Agar boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilar bilan ishlash jarayoni to‘g‘ri yo‘lga qo‘y bu o‘quvchilarning kelajakdagi ta’lim olish jarayoniga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Birinchi sinfga kelgan bola predmetlarning rangi, shakli va kattaligini, ularni makonda joylshishini bilish bilan birga, ularni taqqoslay oladi. Maktabda muvaffaqiyatlari o‘qish uchun bola sensor rivojlanganlik darajasining yuqori bo‘lishi juda zarurdir. Maktab yoshiga kelib, normal rivojlanayotgan bola rasm va suratlar real hayotni aks ettirayotganligini yaxshi tushunadilar. Shuning uchun ham surat va rasmlarda nimalar aks etganini real hayotga taqqoslagan holda bilishga harakat qiladilar. Bola rasmlarda atrofdagi, hayotdagi narsalarning kichiklashtirib tasvirlanganini anglay biladilar. Bu tasvirlar bolalarda estetik va badiiy didni rivojlaniradi. Chunki bola shu rasmlar orqali olam go‘zalligini, uning turfa ranglardan iborat ekanligini anglaydi, ajratadi va o‘z munosaabtini bildira oladi. Mazkur xususiyat bolada o‘z didiga ko‘ra kyim tanlash, hammaning ham fikriga qo‘shilmasdan, o‘z mustaqil fikrlarini erkin va ravon ifodalash, o‘zi uchun qulay sharoit yaratish qobiliyatlarini shakllantiradi. Bu esa bolaning kelajakdagi hayotida ancha katta rol o‘ynaydi.

Xulosa

Boshlang‘ich ta’lim ta’lim tizimining poydevori bo‘lib, o‘quvchilarning shaxsiy, ijtimoiy va axloqiy rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Bu bosqichda o‘qitiladigan bilimlar va ko‘nikmalar nafaqat kelajakda muvaffaqiyatlari inson bo‘lish uchun, balki jamiyatda faol va mas’uliyatli fuqaro sifatida yashash uchun ham zarur. Boshlang‘ich ta’lim tizimi orqali o‘quvchilarni mustahkam bilim asosida tarbiyalash, ularning

kreativlik va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirish mumkin. Shu bilan birga, jamiyatning barqaror taraqqiyoti uchun boshlang‘ich ta’limning ahamiyati beqiyosdir. Shuning uchun, boshlang‘ich ta’limning sifatini oshirish va uni zamonaviy talablarga moslashtirish zarur.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. I. A. Karimov. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni – xalq, millatni – millat etishga xizmat etsin. – Toshkent, “Sharq”, 1998.
2. M. G. Davletshin va boshqalar. Yosh va pedagogik psixologiya. – Toshkent, 2007.
3. N. Atayeva va boshqalar. Umumiy pedagogika. – Toshkent: “fan va texnologiya”, 2012.
4. Raxmonjonovna, T. G., & Ismoiljon o‘g‘li, M. I. (2024). TALABALARDA BAXTLI OILAVIY HAYOT HAQIDAGI TASAVVURLAR VA OILA MUSTAHKAMILIGI. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 34(1), 165-169.
5. Gulhumorxon, T., & Muazzam, R. (2022). MAKTABGACHA TA’LIM MUASSASADA AMALIYOTCHI PSIXOLOG XIZMATI VA FAOLIYATI. *Yosh Tadqiqotchi Jurnali*, 1(2), 363-366.
6. Raxmonjonovna, T. G. (2024). OILADA SIBLING MUNOSABATLARINING SHAXS SHAKLLANISHIGA TASIRI. *Ta’lim innovatsiyasi va integratsiyasi*, 35(1), 126-129.
7. Raxmonjonovna, T. G. (2024). OILADA SIBLING MUNOSABATLARINING SHAXS SHAKLLANISHIGA TASIRI. *Ta’lim innovatsiyasi va integratsiyasi*, 35(1), 126-129.